



## TA'LIM JARAYONIDA MATNNI TUSHUNISH ASOSIDA NUTQNI RIVIJLANTIRISHNING SAMARALI STRATEGIYALARI

**Madaminova Muzifa Shukurullo qizi**  
Namangan State Pedagogical Institute  
Teacher of the Department of Uzbek  
and World languages

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ta'lif jarayonida matnni tushunish asosida nutqni rivojlanirishning samarali strategiyalari o'rganiladi. Tadqiqotda matnni tushunish qobiliyatini oshirish orqali o'quvchilarining muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada matnni tahlil qilish va mazmunini anglash jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar, jumladan, klasterlash, yangicha venn diagrammasi, muhokama va rolli o'yinlar kabi strategiyalarning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarining qiziqishini oshirish, ularning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish va individual yondashuv asosida o'qitishning o'rni ko'rsatib o'tilgan. Maqola yakunida olingan natijalar va tavsiyalar ta'lif jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** matn, nutq, innovative metodlar, klasterlash, venn diagrammasi, insert usuli, fishbone metodi, piramida, erkin yozuv

## EFFECTIVE STRATEGIES FOR DEVELOPING SPEECH BASED ON TEXT COMPREHENSION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Abstract:** This article explores effective strategies for developing speech skills through understanding texts in the educational process. The study emphasizes enhancing students' communication skills by improving their text comprehension abilities. The article analyzes the effectiveness of interactive methods used in the process of analyzing and understanding texts, including strategies such as clustering, modern Venn diagrams, discussions, and role-playing activities. Additionally, it highlights the importance of increasing students' engagement, encouraging creative thinking, and teaching with an individual approach. The article concludes with findings and recommendations aimed at improving the educational process.

**Key words:** Text, speech, innovative methods, clustering, Venn diagram, INSERT technique, fishbone method, pyramid, and free writing.

## ЭФФЕКТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ РЕЧИ НА ОСНОВЕ ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация:** В данной статье изучаются эффективные стратегии развития речи на основе понимания текста в образовательном процессе. Исследование уделяет особое внимание формированию коммуникативных навыков учащихся путем улучшения их способности понимать текст. В статье анализируется эффективность интерактивных методов, используемых в процессе анализа и осмысливания текста, таких как кластеризация, современные диаграммы Венна,



обсуждения и ролевые игры. Также подчеркивается важность повышения интереса учащихся, стимулирования их творческого мышления и обучения на основе индивидуального подхода. В конце статьи представлены полученные результаты и рекомендации, направленные на совершенствование образовательного процесса.

**Ключевые слова:** текст, речь, инновационные методы, кластеризация, диаграмма Венна, метод INSERT, метод «рыбья кость», пирамида, свободное письмо.

### KIRISH

Hozirgi kunda xar bir davlatda ingliz tili global til sifatida o'rganilishini taqozo etadi. O'zbekiston ham shunday mamlakatlar orasida yetakchi o'rnlarda turishi mubolag'a emas. Mamlakatimizda ingliz tilini yanada chuqurroq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda va bu o'z samarasini ko'rsatmoqda. Lekin shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ta'limgarayonida boshqa fanlarda bo'lgani singari ingliz tili o'qitilishida ham bir qancha hali yechilishi kutilayotgan tadqiqotlar mavjud.

Bugungi kunda globallashuv va ta'limgazining baynalmillalashuviga sharoitida umumiy o'rta ta'limgazining chet til nutqiy faoliyati muhim aspekti bo'lgan o'qish kompetentsiyasini rivojlantirish dolzarblik kasb etmoqda. Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishslashni o'rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlarga, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida, xususan, AQSH (Boston universiteti), Angliya (NILE - Norwich til ta'limi instituti), Avstraliya (Avstraliya milliy universiteti), Kanada (Toronto universiteti), Norvegiya (Oslo Akkershus universiteti), Germaniya (Myunxen va Augsburg universitetlari)da ingliz tilini o'rgatish va o'rganishda tilning asosiy 4 ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari va ularni integrallashgan holda ta'limgarayoniga tatbiq etish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, nutq ko'nikmalarani matnni tushinish orqali rivojlantirish ham ingliz metodikasidagi dolzarb tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Quyida ana shunday o'rganish jarayoni yuzasidan mulohazalar bayon etiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'limgarayonida matnni tushunish asosida nutqni rivijlantirish doirasida ko'plab tadqiqotlar va metodologiyalar mavjud. Quyida mazkur sohada olib borilgan eng dolzarb va innovatsion ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot va yondashuvlar keltirib o'tiladi.

Matnni tushinish asosida o'quvchilarning til ko'nikmalari va tanqidiy fikrlash darajasini oshirish mumkin. Ta'lism jarayonidagi bunday muvaffaqiyat va o'zgarish ko'p jihatdan ilmiy-nazariy manbalarning sifatiga bog'liq .

John Deweyning "Demokratiya va ta'lim" ("Democracy and Education") kitobi pedagogik falsafaning muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kitobda Dewey ta'limning jamiyatdagi roli, o'quv jarayoni va shaxs rivojlanishiga ta'siri haqida keng fikr yuritadi. Garchi Dewey matnni tushunish va nutq rivojlanishi haqida maxsus mavzu sifatida to'xtalmasa ham, u fikrlash, kommunikatsiya va o'rganish jarayonlari o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ta'kidlaydi. Dewey shunday deydi: "Tajriba - o'quvchining bilimi va fikrlash faoliyatining manbai bo'lib xizmat qiladi. O'rganish real hayot bilan bog'langan taqdirdagina samarali bo'ladi."

Lev Vygotskiyning "Nutq va tafakkur" ("Thought and Language") asarida matnni tushunish va nutq rivoji masalalari bilvosita, lekin chuqur tarzda muhokama qilinadi. Vygotskiy nutqni rivojlanish jarayonida uch turga ajratadi: tashqi nutq, ichki nutq va yozma nutq. Matnni tushunish jarayonida ayniqsa ichki nutqning roli katta. O'quvchi matnni o'qib, uning mazmunini anglash uchun ichki nutqni qo'llaydi. Vygotskiy ichki nutq haqida shunday deydi: "Ichki nutq – bu tafakkurning ichki vositasi bo'lib, u yordamida inson o'z fikrlarini qayta ishlaydi va anglaydi." Matnni tushunishda o'quvchi matn mazmunini o'z ichki nutqi orqali qayta ishlaydi va shu orqali matnning ma'nosini chuqurroq anglaydi. Matnni tushunish va uni nutq orqali ifoda qilish o'quvchining nafaqat lingvistik, balki mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Jean Piaget fikrlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, o'zining «Bolalar fikrining rivojlanishi » nomli asarida matnni tushunish va nutq rivojlanishining bosqichma-bosqich jarayoni va uning ta'limga bo'lgan ta'siri xususida ijodiy tahlil qilinadi. Garchi mazkur kitobda matnni tushunish va nutq haqida aniq yo'naltirilgan boblar mavjud bo'lmasada, muallifningning fikrlash va nutq o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi g'oyalari matnni tushunish va nutqni rivojlantirish bo'yicha ko'plab pedagogik yondashuvlarga asos bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu asarda muallifning fikricha, bolalarning tafakkuri bir qancha rivojlanish bosqichlaridan o'tadi, va har bir bosqichda ularning matnni tushunishi va nutq qobiliyatlari o'ziga



xos tarzda rivojlanib boradi. Shuningdek, Piaget ta'kidlab o'tgan bosqichlari matnni tushunish jarayoni bolaning rivojlanish darajasiga moslashishi kerak. Ya'ni, kichik yoshdagi bolalar uchun matn oddiy va hayotiy bo'lishi kerak, kattaroq yoshdagi bolalar esa murakkabroq va mavhum tushunchalarini ham o'zlashtirishga qodir bo'ladi.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR

Matnni tahlil qilish va uning mazmunini anglash jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar o'quvchilarni o'quv jarayonida tanqidiy fikr yuritishga, fikrlarini erkin ifoda qilishga va mazmunni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu metodlar dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro muloqotini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada bir qancha interfaol metodlarning tahlilini va uni dars jarayoniga tatbiq qilish xususidagi fikrlar to'g'risida mulohaza yuritamiz.

Birinchi navbatda klasterlash usuli xususida so'z yuritadigan bo'lsak, bu metod matnning asosiy g'oyalarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ushbu usulda o'quvchilar matnni o'qib chiqadilar va uning asosiy mavzusi yoki kalit so'zi tanlanadi. Kalit so'zlar orqali kelib chiqadigan fikrlar va tushunchalar doira shaklida chizib chiqiladi va o'zaro bog'lanadi va matnni tushunish va tahlil qilish orqali o'z fikrlarini aniqlashtirib oladi. Ushbu metod orqali o'quvchilar matnning asosiy mazmunini ajratib olish va uni tahlil qilib nutqda foydalana olishni o'rganadi.

Insert usuli – belgilash va izoh berish usuli. Bu metod orqali o'quvchilarni matnni o'qish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Matn o'qishdan oldin o'quvchilarga quyidagi belgilardan foydalanish tushuntiriladi:

- “+” – o'quvchi bilgan ma'lumotlar uchun.
- “-” – o'quvchi bilmagan yangi ma'lumotlar uchun.
- “?” – tushunarsiz joylar uchun.
- “!” – juda qiziqarli yoki muhim ma'lumotlar uchun. Va o'z xoxishiga ko'ra maxsus belgilarni qo'shishi mumkin bo'ladi. Matnni o'qib chiqib, o'quvchilar o'z belgilarini qo'yadilar va keyin belgilangan joylarni muhokama qiladilar. Bu usul orqali o'quvchilar matn mazmunini tanqidiy tahlil qilishni o'rganadi va yangi bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga imkon yaratadi.



Fishbone metodi- matnni tushunish jarayonida uning asosiy muammolarini aniqlaydi va sabablarini tahlil qilishda qo'l keladi deb ayta olamiz. Mattni tushunish jarayonida unagi asosiy muammo aniqlanadi va skeletning markaziy qismiga yoziladi. Skeletning yon tarmoqlariga esa muammoning asosiy sabablarini yozish uchun joy ajratiladi. O'quvchilar shu sabablarni muzokara va bahs shaklida matnni tushinish orqali aniqlaydilar va skeletning yon tomonlariga yozadilar. Skletning yon tomonlarini sabab va yechim uchun ham ajratib olsa bo'ladi. Bu usul o'quvchilarni yanada kengroq fikrlashga va o'z fikrini erkin ifodalay olishiga imkon yaratadi, shuningdek, muammoni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Piramida usuli- matn mazmunini chuqurlashtirilgan tarzda tahlil qilish va o'quvchilarning matnnitushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu usulda o'quchilar berilgan matnni o'qib chiqadi va matndagi asosiy g'oyalarni topishi lozim bo'ladi. So'ngra asosiy fikrlar katta g'oyalarga birlashtiriladi. (masalan, nima sababdan qahramon bunday qaorga keldi?). Natijada, barcha o'quvchilar birgalikda matn mazmunidan umumiy xulosa chiqara oladi va uni nutqda erkin qo'llay oladi.

Erkin yozuv usuli- tanqidiy fikrlashni va o'z nutqini erkin ifodalash uchun asqatadigan metodlardan biri. O'quvchilar berilgan matnni o'qib tanishib chiqadi va ma'lum vaqt davomida matn xususida o'z fikrlarini erkin yozish vazifasi beriladi. Keyin ular yozganlarini o'qib beradilar va boshqa o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Bu metod orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ham yozma ham og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo'lish mumkin.

Innovative Venn diagrammasi metodi- venn diagrammasi barchamizga ma'lum va ta'lif jarayonida keng qo'llanib kelinayotgan usullardan biri hisoblanadi. Lekin bu diagrammaga biroz o'zgartirishlar kiritilgan va ta'lif jarayonini yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. Bu usulning asosiy tamoyili o'quvchilarning fikrlash va faolligini oshirish hamda tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. An'anaviy venn diagrammasida barchamizga ma'lumki odatda ikki yoki uchta doiradan foydalaniladi. Innovative yondashuvda esa ko'p doiralarni qo'llash orqali bir vaqtida bir nechta tushunchalarni tahlil qilish mumkin. Amaliyotda qo'llaganimizda ushbu usul orqali o'quvchilarga bir nechta tushunchalarni taqqoslash va solishtirish topshirig'i beriladi(masalan, uch yoki to'rt qahramonning



harakterlari). Har bir doira bir tushunchani ifodalaydi va ular kesishgan joy esa ularning umumiy jihatlarini ko'rsatadi. Rangli venn diagrammasida taqqlashni ranglar orqali yanada qiziqarliroq va intiutiv qilish imkonini beradi. Har bir doira alohida o'z rangiga ega bo'ladi va bu ranglarni ham asosiy tushunchalarning mazmuni va harakteri juhatidan kelib chiqib tanlash mumkin. Ranglar yordamida umumiylig va farqlarni visual tarzda ko'rsatib berish osonlashadi. Venn diagrammasini innovative usulda qo'llash orqali o'quvchilarning matnni chuqurroq tushunishi va o'z nutqida erkin foydalana olishiga imkon yaratadi, balki tanqidiy va ijodiy fikrlashiga ham yordam beradi.

Matn bo'yicha savol yaratish va ularga javob berish- o'quvchilar matnni o'qib tahlil qiladilar va matndan foydalanib savol tuzadilar va bir-biriga savol-javob berish tariqasida yanada mustahkamlaydi. Bu usul sizga an'anaviy usuldek ko'rinishi mumkin, lekin ba'zi texnikalar orqali bu metodni ham zamonaviy metodlar sirasiga qo'shsak bo'ladi. Savol javob usulidagi kalit so'zlar metodini olsak, bu usulda o'qituvchi tomonidan matnga oid kalit so'zlar beriladi va o'quvchilar shu kalit so'zlardan foydalanib savol tuzishlari kerak bo'ladi. Masalan, Alpomish dostonini oladigan bo'lsak, bu dostondagi kalit so'zlarni o'qituvchi tomonidan beriladi. Kalit so'zlar do'stlik, sadoqat, sinov, vatanni sevish, jang kabi so'zlar bo'lishi mumkin. O'quvchilar esa "Alpomish va Qaldirg'och o'rtasidagi do'stlik qanday namoyon bo'ladi?" degan savollarni tuzishi mumkin. Bu usul orqali har bir guruhdagi o'quvchilarning kreativligi va tanqidiy fikrlashini ham aniqlab olishimiz mumkin. Ushbu metodni sinab ko'rib, o'quvchilarning matnni tushunishi va nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirish mumkin.

## XULOSA

Nutq qobiliyati shunchaki osonlik bilan o'zlashtirilmaydi. Standart darajadagi gapirish ko'nikmasiga erishish ko'proq mehnatni talab qiladi. Gapirishni o'rgatish va o'rganish maqsadiga erishish uchun ko'plab usullar qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish tilni o'rgatish va o'rganishning muhim qismi sifatida qaralmoqda, shu sababli nutqni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Matnni tahlil qilish va uning mazmunini anglash jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar o'quvchilarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga, fikrlarini ifoda qilishga



va mazmunni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamda o'quvchilarning bir-biri bilan o'zaro muloqotini kuchaytirishga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil uchun murojaatnoma. - Elektron manbaa: <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>. Murojaat sanasi: 12.03.2023.
2. Brown D.H. Teaching by principles. An interactive approach to language pedagogy. – New York: Longman, 2007. – Pp. 357-390.
3. Yusupdjanova, S. M. (2023). THE ROLE OF EDUCATIONAL TOOLS IN ANTHROPOCENTRIC RELATIONSHIP EDUCATION. *European journal of education and applied psychology*, (4), 52-58.
4. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиши методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлари (факултетлари) талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – 432 б.
5. Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan, 2015. –336 p
6. Abdualimovich, R. X. (2024). TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY*, 85-91.
7. Elnozaxon, I., & Axmatilloyevna, I. N. (2023). INGLIZ TILINI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(7), 162-165.
8. Sobirova, N. Q. Q. (2024). NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1), 926-930.
9. Celce-Murcia M., Brinton D.M., Snow A.M. Teaching English as a second or foreign language. – Boston: National Geographic Learning, 2014. – Pp. 154-155.
10. Sobirova, M. (2021). Matn tahlili asosidal o'quvchilarni insonparvarlik ruhidal tarbiyalash. *Pedagogik mahorat.-Buxoro*, (4), 147-149.